

## **WEB-SAHIFALARGA RASMLI, GRAFIKLI MA'LUMOTLARNI JOYLASHTIRISH VA BEZASH. GRAFIK OBYEKTLARINING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani  
1-son kasb-hunar maktabi informatika fani o'qituvchisi  
Madenova Guljamila

**Annotatsiya :** Ushbu maqola orqali web - sahifaga grafikli, rasmlil ma'lumotlarni joylash haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqishingiz mumkin. Web - sahifadagi rasmlar joylashtirish qismining eng samarali usullaridan birini ko'rib chiqamiz.

**Abstract:** Through this article, you can learn information about placing graphic, image information on a web page. We will consider one of the most effective ways of placing images on a web page

**Аннотация:** В этой статье вы можете узнать информацию о размещении графической и графической информации на веб-странице. Мы рассмотрим один из самых эффективных способов размещения изображений на веб-странице.

**Kalit so'zlar:** Web-sahifa, grafikli ma'lumotlar, tasvir, web-brauzer, dizaynerlik faoliyati, infarmatsion grafika,

**Keywords:** Web page, graphic data, image, web browser, design activity, informational graphics

**Ключевые слова:** веб-страница, графические данные, изображение, веб-браузер, дизайнерская деятельность, информационная графика

Web-sahifani "jonlantirish"ning eng samarali usuli – unga turli rasmlar joylashtirishdir. Faqat matndan iborat web-sahifa ma'lumotga boy bo'lishi mumkin, lekin zerikarli bo'ladi. Ammo web-sahifaga haddan ziyod rasm joylashtirish web-sahifani bachkana qilib yuboradi hamda web-sahifa faylining hajmini kattalashtirib yuboradi. Fayl qanchalik katta hajmga ega bo'lsa, uni Internet tarmog'idan o'qib olish shuncha ko'p vaqt talab etadi. Demak, web-sahifaga fayl hajmi kichik bo'lgan rasmlarni joylashtirish

maqsadga muvofiqdir. Internet tarmog'ida, asosan, jpeg va gif formatli rasm fayllari qo'llaniladi. Chunki, birinchidan, web-sahifa hajmi kichik bo'lishi uchun, ikkinchidan, web-brauzerlar bu fayllarni qo'shimcha dasturlarsiz aks ettira oladi. Darhaqiqat, bmp formatli rasm faylini jpeg formatga o'tkazilsa, fayl hajmi bir necha barobar kichrayadi. Rasm faylini bir formatdan boshqasiga o'tkazish maxsus dasturlar (ACDSee, Photoshop,...) yordamida amalga oshiriladi. 1 Dizayn (ingliz tilidan design – injener-konstruktor, lotinchadan designare – o'lchab ko'rmoq, oichab bermog) – bu ijodiy faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi sanoat buyumlarining formal sifatini belgilaydi. Bu sifat, shuningdek buyumning tashqi qirralarini o'z ichiga olish bilan birga, asosan, shu tuzilmaviy va funksional aloqadorlikni xaridor hamda ishlab chiqamvchi ko'zi bilan qaraganda uni yagona holatga keltiradi. Dizayn sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'langan, insonni o'rab turgan atrof-muhitning barcha jabhalarini qurshab oladi.

Dizaynning turlari dizaynerlik faoliyati loyihalash predmetining farqlanishi, loyiha ishining maqsadlari va usullari hamda uning yakuniy natijasi bilan farqlanadi.

Dizaynning quyidagi turlari mavjud:

grafik dizayn;

sanoat dizayn;

web-dizayn.

Grafik dizaynda – informatsion grafika, reklama va boshqalar bilan ishlanadi. Web-dizayn va grafik dizayn nomining o'xshashligiga qaramasdan, dizaynning turli yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi. Web-dizayn ma'lumotni saytda tasvirlash uchun ishlatiladi. Ammo grafik dizayn bilan web-dizayn o'zaro bog'langan. Grafik dizaynda tayyorlangan illustratsiyalar saytlarni bezashda keng ishlatiladi. Grafik dizayn aslida foydalanuvchiga uzatiladigan ma'lumotning qabul qilinishini loyihalashi kerak.2 Internet bilan ishlovchi dasturlar tasvirlarni (grafik elementlar) ochish imkoniga ega bo'lishi bilan internetda mavjud sahifalarning deyarli barchasi tasvirli axborotarni nashir eta boshladi. Siz yaratgan web sahifa qiziqarli va chiroyli dizayn asosiga qurilgan bo'lsa uning o'quvchilar soni shubhasiz ortadi. Tarvirlar yordamida harakatlanuvchi tugmalar va Gif animatziyalarni kiritish mumkin. Biroq tasvirlar bilan ishlashda ularni hajmi va formatiga e'tibor berish kerak. Hozirgi paytda internetga joylashtirilayotgan deyarli barcha

sahifalarda ishlatilayotgan tasvirlar formati \*.JPEG yoki \*. GIF ni tashkil etadi. Bunga asosiy sabab, bu formatdagi tasvirlar hajmi juda ham oz. Bu formatdagi tasvirlar ishlatilganda Web sahifa hajmi ortib ketmaydi va sizning web sahifangizdan foydalanuvchi sahifani ochilishini uzoq vaqt kutmaydi. Agar siz boshqa formatdagi tasvirlardan web sahifani bezashda foydalansangiz uning hajmi ortib ketadi va undan foydalanuvchilarga sahifani ochishda muammolar keltirib chiqaradi. Web safini bezatishda uning dizayiniga \*.GIF formatdagi tasvirlardan foydalaning boshqa tasvirlar uchun \*.JPEG dan foydalanishingiz mumkin. 3

Web-sahifada grafiklarni joylashtirish:<IMG> tegi quyidagi tasvirlangan ko'plab atributlarga ega. Bu atributlar qo'shimcha ravishda o'rnatilishi mumkin va IMG tegidan keyin tegning ketmaktlikda joylashgan bo'lishi mumkin:

ALT-<IMG SRC="rasm.jpg" ALT="tasvir"> - Brauzer rasmni qabul qilmasa, rasm o'rnida hosil bo'luvchi matn

BORDER-<IMG SRC="rasm.jpg" BORDER="3"> Rasm atrofidagi ramka kengligini o'rnatadi.Piksellarda o'lchanadi

ALIGN-<IMG SRC="rasm.jpg" ALIGN="TOP"> Tasvirning matnga nisbatan tekislanishini o'rnatadi:

- tasvirning yuqori qismidan matnga nisbatan tekislash - "TOP",
- tasvirning pastki qismidan matnga nisbatan tekislash - "BOTTOM",
- tasvirning o'rta qismidan matnga nisbatan tekislash - "MIDDLE"

HEIGHT- <IMG SRC="rasm.jpg" HEIGHT="111"> Brauzer oynasi ichidagi tasvirning vertikal o'lchamini o'rnatadi.

WIDTH-<IMG SRC="rasm.jpg" WIDTH="210">Brauzer oynasi ichidagi tasvirning gorizonta o'lchamini o'rnatadi. 4

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.<https://kompy.info/mavzu-web-sahifada-grafika.html>
- 2.<https://web-dizayn.uz/courses/web-dizayn/darslar/1-mavzu-%D0%BA%D0%BE%D0%BF%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%82%D1%8C/>
- 3.<http://e-dastur.uz/maqola/dars/222-2-dars.html>
- 4.<https://web-dizayn.uz/wp-content/uploads/2022/09/6.3.pdf>